

TO‘SIQSIZLIK HOLI VA UNING IFODALANISHI

*Rasulova Aziza Muydinovna
FarDU, O‘zbek tili va adabiyoti kafedrasi dotsenti, PhD*

Annotatsiya: Zamonaviy tilshunoslikda tilning o‘ziga xos bo‘lgan birliklarini tadqiq qilish juda tez rivojlanmoqda. Hozirgi kunda tilshunoslikda deyarli hech bir soha qolmaganki mukammal o‘rganilmagan. Mazkur maqolada ham tilda to‘siqsizlik munosabatini ifodalovchi birliklar, ularning fe’l turkumiga kiruvchi birliklar yordamida ifodalanishi tahlil qilingan. Muallif o‘z misollarini chet el tilshunoslaringhamda o‘zbek tilshunoslaring fikrlari asosida isbotlab berishga harakat qilgan.

Kalit so‘zlar: shart mayli, buyruq-istak mayli, bo‘lmoq fe’lining bo‘lishsiz shakli, ko‘makchi fe’llar, harakat nomi, sifatdosh.

СОСТОЯНИЕ ОБСТРУКЦИИ И ЕГО ВЫРАЖЕНИЕ

*Rasulova Aziza Muydinovna
ФарГУ, доцент кафедры узбекского языка и литературы, к.ф.н.*

Аннотация: В современной лингвистике исследование уникальных языковых единиц развивается очень быстро. Сегодня почти нет такой отрасли языкоznания, которая не была бы досконально изучена. В данной статье анализируются единицы, выражающие отношения необструкционности в языке, и их выражение с помощью единиц, принадлежащих к глагольной группе. Автор попытался обосновать свои примеры, опираясь на мнения зарубежных лингвистов и узбекских лингвистов.

Ключевые слова: сослагательное наклонение, повелительное наклонение, инфинитив глагола, вспомогательные глаголы, глагол, прилагательное.

THE STATE OF OBSTRUCTION AND ITS EXPRESSION

*Rasulova Aziza Muydinovna
FarSU, associate professor of the Uzbek language and literature department, PhD*

Annotation: In modern linguistics, the research of unique language units is developing very quickly. Today, there is almost no branch of linguistics that has not been thoroughly studied. In this article, the units that express the relationship of non-obstructiveness in the language and their expression using the units belonging to the verb group are analyzed. The author tried to prove his examples based on the opinions of foreign linguists and Uzbek linguists.

Key words: subjunctive mood, imperative mood, infinitive of the verb to be, auxiliary verbs, verb, adjective.

Kirish. Maydonni yuzaga keltiruvchi til birliklari lisoniy sathlarda o‘ziga xos tarzda namoyon bo‘ladi. O‘zbek tilshunoslida tadqiqot ishlarida grammatikaga xos masalalarini yoritish har doim ham muhim o‘rin egallagan. Grammatikadagi maydon tushunchasi ko‘proq morfologik sathdagi grammatik kategoriyalarni ularga funksional-semantik jihatdan yaqin bo‘lgan tilning boshqa sathlari vositasidagi aloqaning tekshirilishi davomida qo‘llaniladi.

Tadqiqot metodologiyasi Harakat, holatning nomini bildiruvchi fe’l so‘z turkumi doirasidagi to‘siqsizlik munosabati asosan shart mayli, buyruq-istak mayli, bo‘lmoq fe’lining bo‘lishsiz shakli, ko‘makchi fe’llar, harakat nomi, sifatdosh kabilar orqali ko‘rinadi. Ayni shu turkum paradigmafiga kiruvchi fe’lining mayl kategoriysi ko‘rsatkichlari, fe’lining zamon kategoriysi ko‘rsatkichlari, fe’lining bo‘lishli-bo‘lishsizlik kategoriysi, fe’lining funksional ko‘rsatkichlari, fe’lining analitik ko‘rsatkichlari kabi birliklar to‘siqsizlik semasi ostida birlashadi. Ko‘rinadiki, shart semasini ham, to‘siqsizlik semasini ham deyarli bir xil ko‘rsatkichlar ifodalaydi. Bu shart va to‘siqsizlik ma’nolarining o‘zaro bog‘liqligiga ishora beradi. Modal ma’no bildiruvchi mayl kategoriysi “zamon va shaxs-son kategoriysi bilan uzviy bog‘liq bo‘lib, hammasi birgalikda fe’lining tuslanish sistemasini tashkil qiladi, predikativlik ifodalanish formasini hisoblanadi” [1, B.327].

To‘siqsizlik semasi ostida shart va buyruq-istak mayli affikslari bir maydonga kiradi. Shart ma’nosini

ifodalovchi asosiy vosita bu fe'lning shart mayli hisoblanadi. "Fe'lning bu formasidagi fe'l boshqa biror harakatning bajarilishi uchun shart bo'lgan harakatni bildiradi. Boshqa biror harakatning bajarilishi yoki bajarilmasligi shart mayli formasidagi fe'l bildirgan harakatning bajarilishi yoki bajarilmasligiga bog'liq bo'ladi.

Fe'lning –sa affiksli formasi shart ma'nosini bildirganda harakatning bajarilishi so'zlovchiga aniq bo'lmaydi, ya'ni so'zlovchi uni bilmaydi. Masalan, kelgan bo'lsa, kelayotgan bo'lsa, kelsa formasining uchalasida ham harakatning bajarilganligi, bajarilayotgani yoki endi bajarilishini so'zlovchi bilmaydi. Harakatning bajarilishi so'zlovchiga ma'lum bo'lsa, u holda shart ma'nosini ifodalovchi forma q'llanilmaydi" [2, B 346].

Shart maylidagi fe'l shart ma'nosini ifodalab kelganda bu ma'no shart maydonida yadro ma'no sifatida e'tirof etiladi. Shart munosabati gaplarda –sa affiksli fe'l yordamida ifodalanadi. Bundan tashqari, gap mazmunidan payt hamda harakatdan keyingi natija ma'nosini ham ko'rish mumkin.

Muhokama va natija. Ma'lumki, shart mayli qo'shimchasi ham yuklamasi bilan birlgilikda kelib gap mazmunidagi to'siqsizlikni ifodalaydi. Ba'zan bu ifoda ishtirok etgan gaplar markaziy sema sifatida shart ma'nosiga ega bo'ladi. Yuqorida keltirilgan fikrlardan ko'rish mumkinki, shart ma'nosini o'zaro boshqa munosabatlar bilan ham uziyi aloqada bo'ladi. Jumladan, shart va payt munosabati, shart va natija... To'siqsizlik ma'nosini ifodalashda shart maylining ahamiyati katta. Demak, "fe'lning shart mayli boshqa biror harakat, voqe'a-hodisaning bajarilishi uchun shart, vosita bo'ladigan istalgan, faraz, mo'ljal qilingan harakatni bildiradi" [2, B. 330].

Fe'lga –sa shart mayli yasovchi affiks va shaxs-son qo'shimchalaridan birini qo'shish bilan shart maylidagi fe'l hosil qilinadi. Shart maylidagi fe'l bir necha vositalar bilan qo'llanish orqali to'siqsizlik ma'nosini anglatadi. Jumladan, ham yuklamasi bilan, ham yuklamasi va –ki bog'lovchisi bilan, -da yuklamasi bilan, 0 formada. Hozirgi o'zbek adabiy tilida shart maylidagi fe'l shart, orzu-istik, iltimos, maslahat, hayratlanish, gumon, noaniqlik va boshqa shu kabi ma'nolarni ifodalaydi. Shuningdek, birga ham yordamchisi bilan qo'llanib, voqeanning yuzaga chiqishi uchun to'siq bo'la olmagan harakat-holatni bildiradi. Bunda to'siqsizlik ma'nosini asosiy (yadro) ma'no hisoblanib, shart ma'nosini qo'shimcha (periferik) ma'noni bildiradi. Shart mayli affixsi va ham yuklamasi bilan qo'llanuvchi fe'l ko'p hollarda to'siqsiz ergash gapning kesimi yoki to'siqsizlik holi vazifasida keladi.

To'siqsizlik holi shart maylidagi fe'l va yuklama yordamida hosil qilingan. Gapda chegara sema sifatida miqdor ma'nosini ham bor. Bu biroz so'zi orqali aniqlashadi. Ya'ni, bu gapda "to'siqsizlik" semasining miqdor ma'nosini bilan bog'liqligi ko'rindi. 0 formada kelgan shart maylidagi fe'l yordamida shart ma'nosidan tashqari, harakat bajarilishining istakka zidligi ma'nosini ham ifodalanadi. Bu zidlik zamirida ba'zi hollarda to'siqsizlik munosabati ochiladi: Doktor chaqiraylik, desam, ko'nmaydi (S.Ahmad) Berilgan gapda -sa shart mayli affixsi orqali to'siqsizlik munosabatini ko'rish mumkin. Ya'ni, birinchi shaxsning doktor chaqirish istagiga uchinchi shaxs qarshi. Bu qarshilik to'siqsizlik munosabati yordamida amalga oshirilmoqda. Shart maylining nol formasini –sa ham ko'rsatkichi bilan transformatsiya qilinsa, gap mazmunidagi to'siqsizlik yaqqolroq ko'rindi: Doktor chaqiraylik desam ham, ko'nmaydi. Ma'lumki, fe'l sistemasidan joy olgan buyruq-istik maylining II shaxs ko'rinishi ko'pincha 0 shakldagi fe'lga teng keladi. Ayni shu shakldagi fe'l ham ba'zan shart munosabatini ochishga xizmat qiladi. Bunda shart ma'nosini, albatta, biror qo'shimcha ma'no bilan bog'langan bo'ladi. Bu holat qo'shma gaplarda ko'proq uchraydi. 0 shakldagi fe'l shaklan hech qanday qo'shimchasi bo'lmasa ham, tag ma'nosida shart mayli qo'shimchasi yotganligi ko'rindi. Masalan, ayt fe'li 0 shaklda kelgan bo'lishiga qaramay, mazmunida shart ma'nosini bor: Dardingni menga aytsang, malham bo'larman balki. Markaziy sema sifatida ko'rinyotgan shart ma'nosini bu gapda gumon ostida berilgan. Gumon balki so'zi orqali (balki malham bo'larman, balki yo'q ma'nosida) ko'rindi. Demak, keltirilgan gapda shart va gumon ma'nolarining bog'lanishi kuzatiladi.

Buyruq-istik mayli to'siqsizlik munosabatini ham ayrim jihatlari bilan yoritadi. Xususan, "buyruq-istik maylining bo'lishsiz formasini to'siqsizlik ma'nosini bildirib, to'siqsiz ergash gapning kesimi vazifasida ham keladi" [3, B-344]. Shu bilan birga buyruq-istik mayli yordamida ifodalangan to'siqsizlik ma'nosini o'rin, payt, shaxs, umidsizlik, afsuslanish va boshqa shu kabi ma'no munosabatlari bilan aloqaga kirishadi. Quyidagi misolda aynan buyruq-istik maylidagi fe'l to'siqsizlik munosabatini ochib berishga xizmat qilgan: U qayerda ishlamasin, orqasidan biron odam "Asqad ishni chala qilib ketdi" yoki "Ishni xom qildi," degan gap aytmagan. (S.Ahmad) Berilgan gapda inkor shakldagi buyruq-istik mayli affixsi orqali to'siqsizlik ko'rinoqda. Gapni –sa ham yoki qat'i nazar ko'rsatkichli gapga aylantirilsa,

“to‘siqsizlik” semasi oydinlashadi.

Ayrim hollarda to‘siqsizlik munosabati buyruq-istak maylining bo‘lishli shakli orqali ham berilishi mumkin. Bunday holat ko‘proq to‘siqsizlik hollari ifodasida ko‘rinadi:

Endi ming oh uray, foydasi yo‘q. (T.Malik).

Bu misolda 1 shaxs birlikda kelib, –ay ko‘rsatkichini olgan buyruq-istak maylidagi fe’l to‘siqsizlik munosabatini ochishga xizmat qilgan. Mazkur ko‘rsatkich to‘siqsizlikni bildiruvchi boshqa vositalar bilan almashtirib qo‘llanishi ham mumkin: Endi ming oh ursam ham, foydasi yo‘q. Gapda to‘siqsizlik ma’nosini yoritishga ming soni ham yordamchi ko‘rsatkich sifatida xizmat qilgan. Bu sonni qancha, qanchalik, har qancha kabi olmoshlar bilan bir qatorda ishlatish mumkin: Har qancha oh ursam ham, foydasi yo‘q. Gapdag'i to‘siqsizlik bildiruvchi ming oh uray birikmasi o‘z navbatida umidsizlik, afsuslanish ma’nolarini o‘ziga ergashtiradi. Ya’ni, birikma mazmunidan birinchi shaxsning umidsizlikka tushishi, qilgan ishidan afsuslanishi ma’nolari sezilib turibdi.

Qayerga bormay, nima qilmay, cho‘l bo‘risi ko‘zimdan ketmaydi. (S.Ahmad.) Berilgan gapda –may buyruq-istak mayli affksi to‘siqsizlikni yuzaga chiqaruvchi asosiy vosita sanaladi. Ya’ni, muallifning xayolidan cho‘lbo‘risining ketmasligi holati uning biror joyga borishi yoki biror ish bilan shug‘ullanishidan qat’i nazar yuzaga kelmoqda. Aslida muallif boshqa ish bilan shug‘ullanganda diqqat-e’tibori o‘sha bajarayotgan ishiga qaratilishi kerak edi. Gapda to‘siqsizlikni yuzaga chiqarayotgan qo‘shimcha vositalar ham mavjud. Bular qayerga va nima qilmoq so‘roq so‘zlaridir. Bundan to‘siqsizlik maydonining o‘rin va harakat ma’nolari bilan munosabatini ko‘rish mumkin. Gapda tag ma’no sifatida “shart” semasi ham ko‘zga tashlanadi. Demak, “biror joyga borish” yoki “biror harakat bilan shug‘ullanish” shartining amalga oshishi “cho‘l bo‘risining ko‘z o‘ngidan ketmasligi” holatiga to‘siq bo‘la olmayapti.

Xulosa. To‘siqsizlik munosabatini ifodalovchi birliklarni maydon asosida o‘rganishda fe’l mayllari ham o‘ziga xos ahamiyatga ega. Fe’lning mayl kategoriyasini olgan fe’llar ham shaxs-sonda tuslangan holatda to‘siqsizlik ma’nosini ifodalashda katta o‘rin egallaydi. Ular o‘zlar bilan yordamchi so‘zlar (olmoshlar, sonlar, baribir kabi vositalar) kelishini talab qiladi. Gapda bu yordamchi so‘zlar bildirgan ma’nolar ko‘pincha to‘siqsizlikning chegara semasi bo‘lib xizmat qiladi.

Foydalaniman adabiyotlar ro‘yxati:

1. Гулыга Е.В., Шендельс Е.И. Грамматико-лексические поля. М.: 1969. - С.83.
2. Турсунов У., Мухторов Ж., Раҳматуллев Ш. Ҳозирги ўзбек адабий тили. –Т.: Ўзбекистон, 1992. – Б. 327.
3. Ҳозирги ўзбек адабий тили. - Т.: Ўқитувчи, 1980. – Б. 346.
4. M. Hamrayev, D. Muhamedova, D. Shodmonqulova, X. G‘ulomova, Sh. Yo‘ldosheva. Ona tili (darslik) Iqtisodiyot-Moliya, Toshkent, 2007-yil.
5. R. Ikromova, D. Muhamedova, M. Hamrayev. Ona tilidan mashqlar to’plami. (o’quv qo’llanma). TDPU, Toshkent, 2009-yil.
6. Англо-русский словарь. Составитель В.К. Мюллер. Москва, 1971, стр. 682.
7. Jamolxonov H.A. Hozirgi o‘zbek adabiy tili. - Т.: “Talqin” nashriyoti. 2005, 25-bet.
8. George Yule. The Study of Language. CAMBRIDGE UNIVERSITY PRESS. 2010, 42-bet.
9. Kumush Karimova, Nargiza To’xtamurodova, OK Xakimbayeva “XORIJIY TILLARNI O ‘QITISHDA ZAMONAVIY YONDASHUV”. Международная конференция академических наук Том 1. Номер 24. Стр 43-36.
10. Avazbek Axmadqulov, Ozoda Xakimbayeva “GAPNING AKTUAL BO’LAKLARI” Международная конференция академических наук 2022/7/5. Том 1. Номер 24. Стр 27-30.